

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna	109
<i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich	
<i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
<i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
<i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli	
<i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi	
<i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna	
<i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna	
<i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna	
<i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich	
<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
<i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich	
<i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi	
<i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MEHNAT BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Innovatsion menejment kafedrası tadqiqotchisi,
bunyodmardiyev7095@gmail.com
Orcid: 0009-0004-4728-5960

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan. Zamonaviy mehnat bozorida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va yuqori malakali kadrlar uchun ehtiyojning ortib borishi tikuv-trikotaj sanoati uchun yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, innovatsion boshqaruv yondashuvlari, ishlab chiqarish-resurslar balansini optimallashtirish hamda mehnat unumdorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda tikuv-trikotaj korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, mehnat bozorida yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yengil sanoatni rivojlantirish, zamonaviy mehnat bozorini diversifikatsiya qilish va korxonalarda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion iqtisodiyot, mehnat bozori, tikuv-trikotaj korxonalari, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, transformatsiya, raqamli texnologiyalar, mehnat unumdorligi, innovatsion boshqaruv, kasbiy kompetensiyalar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ РЫНКА ТРУДА И МЕХАНИЗМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА НА ШВЕЙНО-ТРИКОТАЖНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li

Ташкентский государственный экономический университет
Научный сотрудник кафедры инновационного менеджмента

Аннотация. В статье анализируются механизмы трансформации рынка труда и эффективной организации производства на швейно-

трикотажных предприятиях в условиях инновационной экономики. На современном рынке труда цифровые технологии, автоматизированные системы управления и растущая потребность в высококвалифицированных кадрах создают новые возможности и вызовы для швейно-трикотажной промышленности. Поэтому эффективная организация производственных процессов, инновационные подходы к управлению, оптимизация баланса производства и ресурсов, повышение производительности труда имеют большое значение на предприятиях. В исследовании рассматриваются такие вопросы, как повышение эффективности производства за счет внедрения инновационных технологий на швейно-трикотажных предприятиях, а также формирование новых профессиональных компетенций на рынке труда и эффективное использование человеческих ресурсов. Также в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» разработаны предложения и рекомендации по развитию легкой промышленности, диверсификации современного рынка труда, расширению инновационных механизмов управления на предприятиях.

Ключевые слова: инновационная экономика, рынок труда, швейно-трикотажные предприятия, эффективная организация производства, трансформация, цифровые технологии, производительность труда, инновационный менеджмент, профессиональные компетенции, стратегия «Узбекистан - 2030».

TRANSFORMATION OF THE LABOR MARKET AND MECHANISMS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF PRODUCTION IN SEWING AND KNITTING ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF AN INNOVATIVE ECONOMY

Mardiyev Bunyod Sirojiddin oglu

Tashkent State University of Economics Researcher

Department of Innovation Management

Abstract. The article analyzes the mechanisms of labor market transformation and effective organization of production in garment and knitwear enterprises in the context of an innovative economy. In the modern labor market, digital technologies, automated management systems, and the increasing need for highly qualified personnel create new opportunities and challenges for the garment and knitwear industry. Therefore, effective organization of production processes in enterprises, innovative management approaches, optimization of production-resource balance, and increase in labor productivity are of great importance. The study covers issues of increasing production efficiency through

the introduction of innovative technologies in sewing and knitting enterprises, as well as the formation of new professional competencies in the labor market and the effective use of human resources. Also, within the framework of the "Uzbekistan - 2030" strategy, proposals and recommendations have been developed for the development of light industry, diversification of the modern labor market, and expansion of innovative management mechanisms at enterprises.

Keywords: innovative economy, labor market, sewing and knitting enterprises, effective organization of production, transformation, digital technologies, labor productivity, innovative management, professional competencies, "Uzbekistan - 2030" strategy.

Kirish.

So'nggi yillarda innovatsion iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mehnat bozorida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Yangi texnologiyalar, raqamlashtirish jarayonlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, zamonaviy korxonalardan yuqori malakali, raqobatbardosh va moslashuvchan mehnat resurslarini talab qilmoqda. Xususan, yengil sanoatning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan tikuv-trikotaj sanoati innovatsion iqtisodiyot sharoitida o'z ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi va mehnat bozoridagi yangi talablarga moslashishi zarur.

O'zbekistonda yengil sanoat, jumladan tikuv-trikotaj korxonalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF-158, 2023-yil 11-sentabr)da yengil sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirish, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda mehnat bozorida yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari belgilangan. Shuningdek, PF-4947-sonli Farmon (2017-yil 7-fevral) – "Harakatlar strategiyasi" va PQ-4412-son qaror (2019-yil 10-avgust) – "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" ham mazkur sohada samarali islohotlarni amalga oshirishga huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.


O'tkazilgan rasmiy statistikaga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi jami 123,3 trillion so'mni tashkil etdi; bu raqam 2023-yilga nisbatan o'sishni ko'rsatsa-da, eksport hajmi 6,7 % pasaydi [1]. Shu bilan birga, to'qimachilik eksporti o'tgan yilda 2,9 milliard AQSh dollariga yetib, mamlakat eksportining 10,6 % ini egalladi [2]. Yana bir statistikaga ko'ra, 2024-yilda to'qimachilik ishlab chiqarish hajmi 89,5 trillion so'm bo'lib, sanoatdagi umumiy ishlab chiqarishning 11,9 % ini tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan 11,1 % o'sishga ega bo'ldi [3].

Global miqyosda esa kiyim-kechak bozori jadal o'sishda davom etmoqda: 2025-yilda uning qiymati taxminan 1,84 trillion AQSh dollariga yetib, jahon yalpi

ichki mahsulotining 1,6 % ini tashkil etadi; bu sohada 430 million inson faoliyat yuritmoqda [4]. Boshqa manbaga ko'ra, global tekstil va kiyim-bozorining umumiy hajmi 2023-yilda 1,11 trillion AQSh dollariga teng bo'lib, 2033-yilgacha 1,61 trilliongacha yetadi, bu esa yillik o'rtacha 4,2 % o'sishni ko'rsatadi [5]. Amaldagi jahon tendensiyalari ham innovatsion yo'nalishdagi transformatsiyani aks ettirmoqda. Misol uchun, generativ sun'iy intellekt va metaverse texnologiyalari fashion industriyasini dizayn, ishlab chiqarish va mijoz tajribasini tubdan o'zgartirishga qodirligi ta'kidlanmoqda [6]. Shuningdek, ilg'or ishlanmalar doirasida avtomatik yig'ish va tikish mashinalari orqali tikuv-trikotaj jarayonida ish vaqtini 93 % ga, umumiy tsiklni esa 72 % ga qisqartirishga erishilmoqda [7].

Bundan tashqari, global moda industriyasi ekologik salbiy ta'sir darajasini ham keng muhokama qilmoqda. Masalan, 2023-yilda modada ishlatiladigan arzon polietilen tolalari ishlab chiqarilishi natijasida chiqarilgan issiqxona gazlari hajmi 944 million tonnaga yetgani, bu ko'rsatkich 7,5 % ga o'sgani qayd etilgan [8]. Bu esa barqaror ishlab chiqarish va raqamli innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda.

Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston tikuv-trikotaj korxonalari: ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik, mehnat bozoridagi yangi kadr salohiyatlarini shakllantirish hamda xalqaro tajribalarni tatbiq etish orqali o'z raqobatbardoshligini mustahkamlashi zarur.



1-rasm. O'zbekistonda tikuv-trikotaj sanoati: ishlab chiqarish va eksport dinamikasi (2020-2024 y.) [9].

Rasmdan ko'rinadiki, O'zbekiston to'qimachilik sohasi eksport hajmi har yili o'sib bormoqda. Bu natijaga hukumatning qo'llab-quvvatlov siyosati, "O'zbekiston–

2030 strategiyasi” doirasidagi eksportni diversifikatsiya qilish choralarining samarasi va jahon bozorida paxta-to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi sabab bo‘lmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj sanoatining rivojlanishi, bir qator yutuqlarga erishilayotgan bo‘lsada, ayrim tizimli muammolar va cheklovlar mavjud. Ularni chuqur tahlil qilish ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, mehnat bozori malaka nomutanosibligi kuzatilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida band bo‘lgan ishchi kuchining qariyb 65 foizini ayollar, shuningdek, yoshlarning ulushi 30 foizdan ortiqni tashkil etadi [10]. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, CAD/CAM dasturlari, avtomatlashtirilgan tikuv liniyalari bo‘yicha yetarli mutaxassislar soni cheklangan. Bu esa ishlab chiqarishda samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish sekin kechmoqda. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan ERP tizimlari, PLM platformalari va raqamli dizayn texnologiyalarini O‘zbekiston korxonalarida joriy etish sur’ati sust. Bu esa ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va mahsulotni tezkor bozorga chiqarishda raqobatbardoshlikni cheklaydi.

Uchinchidan, eksport tarkibida asosan xomashyo va yarim tayyor mahsulot ulushi yuqoriligicha qolmoqda. 2024-yilda respublika tikuv-trikotaj eksporti 3,5 mlrd. AQSh dollariga yetgan bo‘lsada, uning 60 foizdan ortig‘i ip-kalava va to‘qima matolardan iborat bo‘ldi [11]. Tayyor mahsulot ulushi yetarli darajada oshmayotgani qo‘shilgan qiymat zanjirini to‘liq shakllantirishni qiyinlashtirmoqda.

To‘rtinchidan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda cheklovlar mavjud. Sanoat korxonalarining katta qismi o‘z mablag‘lari hisobiga faoliyat yuritadi. Venchur kapital bozorining sust rivojlanganligi, xususiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani innovatsion loyihalarni keng miqyosda joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston tikuv-trikotaj sanoati innovatsion iqtisodiyot sharoitida jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida mehnat bozorida yangi talablarni shakllantirmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi va eksport ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘smoqda, ammo mehnat bozori malaka nomutanosibligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi sekinlik, eksport tarkibining xomashyo mahsulotlarga yo‘naltirilganligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi cheklovlar tarmoqning raqobatbardoshligini cheklab qolmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari surish mumkin:

Mehnat bozorini modernizatsiya qilish. Tikuv-trikotaj sanoati uchun zarur bo‘lgan yangi kasblar (dizayner-texnolog, CAD/CAM mutaxassisi, ERP-analitik, avtomatlashtirilgan tikuv liniyasi operatori) bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab

chiqish va oliy hamda o'rta maxsus ta'lim tizimiga joriy etish zarur. Raqamli texnologiyalarni jadallashtirish. Korxonalarda ERP, PLM, CAD/CAM, SAPR kabi axborot tizimlarini joriy etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida imtiyozli kredit liniyalari va grantlar yaratish lozim.

Eksport tarkibini diversifikatsiya qilish. Xomashyo va yarim tayyor mahsulot eksporti ulushini kamaytirib, tayyor mahsulot ulushini oshirish maqsadida dizayn markazlari, brend yaratish va xalqaro sertifikatlash tizimlarini rivojlantirish zarur. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish. Tikuv-trikotaj sanoatida startap va innovatsion loyihalar uchun venchur fondlari, texnoparklar va biznes-inkubatorlar faoliyatini rivojlantirish samarali bo'ladi. Inson kapitaliga investitsiya kiritish. Ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat unumdorligini oshirish uchun xodimlarni qayta tayyorlash, uzluksiz ta'lim dasturlari va xalqaro tajribaga asoslangan malaka oshirish kurslari joriy etilishi zarur.

Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish. Xorazm, Namangan, Andijon, Samarqand kabi hududlarda faoliyat yuritayotgan klasterlarni innovatsion ishlab chiqarish markazlariga aylantirish orqali eksport salohiyatini oshirish mumkin. Umuman olganda, tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va mehnat bozorini zamonaviylashtirish O'zbekistonning global raqobatbardoshlik darajasini oshiradi, iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga va eksport salohiyatining ortishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Textileexpo. (2024). In 2024, textile production in Uzbekistan increased, but exports decreased by 6.7%. Havola*
2. *Fibre2Fashion. (2024). Uzbek textile sector export worth \$2.9 bn, 10.6% of total exports. Havola*
3. *Invexi. (2024). Results of Uzbekistan's industrial production in 2024. Havola*
4. *UniformMarket. (2024). Global apparel industry statistics. Havola*
5. *Grand View Research. (2024). Textile Market Size Report, 2024-2033. Havola*
6. *Arxiv.org. (2025). Generative AI and Metaverse in Fashion Industry. Havola*
7. *Arxiv.org. (2025). Automatic garment assembly and cycle time reduction. Havola*
8. *The Wall Street Journal. (2023). Clothing Made of Cheap Polyester Is Driving Up Fashion's Emissions. Havola*
9. *O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.*
10. *O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2024-yil yakunlari bo'yicha sanoat va mehnat bozori ko'rsatkichlari.*
11. *O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari, 2024-yil.*

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

